

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI

“JAHON QITISODIYOTI VA XALQARO
IQTISODIY MUNOSABATLAR” FANIDAN

REFERAT

Mavzu. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon
hamjamiyatiga qo‘shilishi.

Jahon bozori.

Qabul qildi: *.katta o‘qituvchi Rayxonov U*

Topshirdi: Musurmonova X

Toshkent – 2014 y.

REJA:

- 1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'yektiv asoslari. qiyosiy ustunlik nazariyasi**
- 2.O'zbekistonning jaHon Hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari**
- 3. Xalqaro savdoning mazmuni, to'zilishi va xususiyatlari**
- 4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati, shakllari va ob'yektiv asoslari. Qiyosiy ustunlik nazariyasi

Xalqaro iqtisodiy integratsiya-bu mamlakatlarning chuqur, barqaror o'zaro aloqalarning rivojlanishi va milliy xo'jaliklar o'rtasidagi mehnat taqsimoti asosida ular xo'jalik-siyosiy aloqalarining birlashish jarayonlaridir.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jahon xo'jaligi rivojining tarixiy jihatdan uzoq davr davom etgan natijasi hisoblansa—da, Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi kunda ham mamlakatlarning Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonida hal etilmagan ko'pdan-ko'p muammolar mavjudki, bizning Respublikamiz uchun bu tashqi iqtisodiy va valyuta siyosatini yanada erkinlashtirishdan iborat¹.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning **asosiy shakllari** quyidagilar:

- erkin savdo zonalari. Bu iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli bo'lib, uning doirasida qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi savdo cheklashlari bekor qilinadi. Bunga Evropa erkin savdo uyushmasi va MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bitim misol bo'la oladi;

- boj ittifoqi. Iqtisodiy integratsiyaning bu shakli erkin savdo zonalarining faoliyat qilishi bilan birga yagona tashqi savdo ta'riflari o'rnatishni va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati yuritishni taqozo qiladi. Evropa Ittifoqi (EI) boj ittifoqiga yorqin misoldir;

- to'lov ittifoqi. Bu milliy valyutalarning o'zaro erkin almashuvini va hisob-kitobda yagona pul birligining amal qilishini ta'minlaydi. Evropa

¹ Karimov I.A. Islohotlar va investitsiyalar bo'yicha idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishidagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 2000 yil 2 fevral.

hamjamiyati, janubiy-SHarqiy Osiyo va MDH mamlakatlari uchun to'lov ittifoqi pirovard maqsaddir;

- umumiy bozor. Bu iqtisodiy integratsiyaning ancha murakkab shakli bo'lib, uning qatnashchilariga erkin o'zaro savdo va yagona tashqi savdo ta'rifi bilan birga kapital va ishchi kuchining erkin harakati hamda o'zaro kelishilgan iqtisodiy siyosat ta'minlanadi. Bunga Evropa iqtisodiy ittifoqi yoki Evropa umumiy bozorini misol qilib keltirish mumkin. Uning doirasida barcha boj to'lovlari va import me'yor (kvota)lari bekor qilinadi, boshqa mamlakatlardan Evropa bozoriga tovarlar kirishi bir xil tartibga solinadi, pul mablag'lari va ishchi kuchining chegaradan erkin o'tishi ta'minlanadi hamda umumiy muammolarni hal etishda yagona siyosat o'tkaziladi;

- iqtisodiy va valyuta ittifoqi davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning eng oliy shakli hisoblanadi. Bunda iqtisodiy integratsiyaning barcha qarab chiqilgan shakllari umumiy iqtisodiy va valyuta-moliyaviy siyosat o'tkazish bilan birga uyg'unlashadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini ob'yektiv harakterdagi **bir qator omillar taqozo qiladiki**, ularning ichidan quyidagilar asosiy o'rinni egallaydi:

- xo'jalik aloqalarining baynalminallashuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi;
- umum jahon fan-texnika revolyutsiyasi;
- milliy iqtisodiyot ochiqqligining kuchayishi.

Qiyosiy ustunlik nazariyasi. Iqtisodiy rivojlanishning milliy andozasidan jahon andozasiga o'tish va xalqaro iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishi mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy

munosabatlarda qatnashishi milliy iqtisodiy manfaatlarga qanday darajada javob beradi? –degan savolni qo'yadi. Bu savolga javob topishga iqtisod fani ilgaridan qiziqib kelgan. Jumladan, A.Smit xalqaro mehnat taqsimoti masalasini tahlil qilib, qanday tovarlarni eksport qilish va qaysilarini import qilish qulayligi to'g'risidagi o'z qarashlarini bayon qilish asosida “mutloq ustunlik” nazariyasini ilgari surgan. D.Rikardo o'zaro foydali savdo va xalqaro ixtisoslashuvning ancha umumiy printsiplarini shakllantirib, “qiyosiy ustunlik” nazariyasini ishlab chiqqan. U nafaqat milliy xo'jaliklar o'rtasidagi, balki milliy xo'jalik ichidagi mintaqalar, korxonalar o'rtasidagi har qanday mehnat taqsimotining ustunliklarini asoslab beradi.

Mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo munosabatlari o'rnatilganda ayirboshlash qanday nisbatlar asosida ro'y beradi degan savol tug'iladi. Rikardoning xalqaro ixtisoslashuv ustunliklari haqidagi xulosalari, bu muammoni chuqurroq tadqiq qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'ladi. Jumladan, Dj. Millъ ishlab chiqarish harajatlarining turli nisbatlari o'rtasida o'rnatiladigan almashuv mutanosibligi tovarning har biriga jahon taklifi va talabi hajmiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy nazariyada xalqaro ixtisoslashuvning ustunliklarini asoslash Rikardoning klassik sxemasi bilan cheklanmagan. XX asrda xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini ko'plab iqtisodchilar: jumladan, S. Xeksher, B. Olin, Dj. Keynos, V. Leontev va boshqalar tomonidan tadqiq qilindi. Xalqaro ixtisoslashuvning qonuniyatlarini yanada chuqurroq tushunish qiyosiy harajatlar tahlili asosida ko'p omilli andoza to'zishga olib keldiki, unda tovarlar harakati bilan birga ishlab chiqarish omillarining davlatlararo erkin harakati imkoniyatlari hisobga olindi.

O'tkazilgan tadqiqotlarda nafaqat tarmoqlararo, balki tarmoqlar ichida va mintaqa o'rtasidagi ixtisoslashuvning qonuniyatlari, mamlakatning material, kapital, mehnat va fan sig'imili tovarlarga ixtisoslashuv sabablari ochib berildi. Ixtisoslashuvga fan va texnika taraqqiyoti hamda texnologik o'zgarishlar sur'ati va harakteri ta'sirining xususiyatlari aniqlanadi.

2. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish borasida qoida va tamoyillarning ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilish yo'llarini belgilash taqozo etiladi.

Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlarida o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirilga asoslanadi¹.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo'jalik aloqalarida ishtirok etishning asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga

¹ Karimov I.A. "O'zbekiston burok kelajak sari". T.: "O'zbekiston", 1998. 266-267 betlar.

keltirishdir. SHu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ko'p davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatdi, dunyoning 20 dan ortiq davlatida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko'pgina xalqaro tashkilotlar - BMT iqtisodiy muassasalari, jahon banki, xalqaro bank, xalqaro valyuta fondi, xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi. Respublika a'zo bo'lib kirgan dastlabki ittifoq - Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (1991 yil to'zilgan) hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan to'zilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)dir.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilish talablaridan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shag'ullanishi zarur bo'lgan barcha muassasalar (tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, bo'xonalar xizmati va boshqalar) amalda yangidan tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasidan tortib, boshqaruvning mahalliy darajasi va korxonalargacha bo'lgan xo'jalik sub'ektlarida tegishli tashqi iqtisodiy bo'limlar to'zildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdo uylari ochildi va savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Tashqi savdo bilan birga iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada rivojlandi. Respublika xududida ro'yxatdan o'tgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni 3445 tadan oshdi, (faoliyat ko'rsatayotganlari 1795 ta) ularning eksporti hajmi mamlakat umumiy eksportining 13,8 foizini tashkil qiladi (2000 yil). Bunday korxonalarning asosiy qismi sanoat tarmoqlari (50,1%) savdo va umumiy ovqatlanish (29,9%) sohalarida to'plangan.

Dastlabki davrlarda respublikamizda tashqi savdo ikki yo'nalish bo'yicha: MDH mamlakatlari bilan xukumatlararo bitimlar va xorijiy mamlakatlar bilan erkin muomaladagi valyutada hisob-kitob qilish asosida amalga oshirildi.

2000 yil respublikamiz tashqi savdo aylanmasi 6212,1 mln. AQSH dollarining tashkil etib, uning 37,0 foizi MDH mamlakatlari, 63,0 foizi uzoq xorijiy mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Xorijiy mamlakatlarga mahsulot eksporti hajmi to'xtovsiz ko'payib borib 2000 yilda 3264,7 mln. dollarni tashkil qildi, uning asosiy qismi (64,1%) uzoq chet el davlatlari hissasiga to'g'ri keldi¹.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda Markaziy Osiyo davlatlarining ko'p tomonlama aloqalari va hamkorligini rivojlantirishga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasidagi yagona iqtisodiy makon to'g'risida to'zilgan shartnoma samara bera boshladi. Ularning sanoatini integratsiyalashtirishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi.

MDH mamlakatlari bilan bevosita va ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Hamdo'stlik davlatlari muassasalari - Davlatlararo iqtisodiy ko'mita, Davlatlararo bank va boshqa muassasalarni tashkil etishda faol qatnashmoqda. MDHdagi mamlakatlar (Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova va boshqalar) bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa shartnoma hamda bitimlar imzolanib, ular kuchga kirdi.

¹ Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi statistika departamenti ma'lumotlari.

Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga, hamda zarur bo'lgan tashkilot va muassasalar to'zishga katta ahamiyat berilmoqda. Bular jumlasiga tavakkalchilik xatarlari keltiriladigan zararni qoplaydigan "O'zbekinvest" milliy sug'urta kompaniyasini, turli qo'shma sug'urta kompaniyalarini, Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT bilan birgalikda tashkil qilingan investitsiyalarga ko'maklashuvchi xizmatni, Davlat mulk ko'mitasi xuzuridagi ko'chmas mulk va xorijiy investitsiyalar agentligi kabilarni kiritish mumkin. Bu muassasa va tashkilotlar hamda respublikada vujudga keltirilgan huquqiy me'yorlar xorijiy investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratib, ularning xuquqlarini himoya qiladi va sarflangan sarmoyasini kafolatlaydi. SHu sababli respublikamiz iqtisodiyotiga faqat 2000 yil davomida "...qariyb 810 mln. AQSH dollari miqdoridagi sarmoya kiritildi. Jami sarmoyalarning 55 foizidan ziyodi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi"¹. SHu yili respublikada asosiy kapitalni ko'paytirishga kiritilgan chet el investitsiyalari va kreditlari hajmining 150,8 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi BMTning respublikada amalga oshirayotgan iqtisodiy, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, fan sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalarida ham namoyon bo'ladi.


Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik, NATOning "Tinchlik yo'lidagi sheriklik" dasturida mamlakatimiz ishtiroki uning jahon xo'jaligi qo'shilishning

¹ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. "Xalq so'zi". 2001 yil 17 fevral. № 37 (2599)


navbatdagi yo'nalishidir. Jumladan, Evropa Ittifoqi bilan Respublikamiz o'rtasida imzolangan SHeriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim (1996 yil iyun) tashqi iqtisodiy faoliyatining ustivor yo'nalishidir;


Respublika iqtisodiyotining alohida tarmoqlarida chet el investitsiyalari va kreditlaridan foydalanish quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlanadi (umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida).

1999 yil.



2000 yil.



☐

Ximiya va neft ximiyasi sanoati

☐☐☐

Mashinasozlik

Engil sanoat

tarmoqlar

Oziq-ovqat sanoati.

☐

Transport

☐

Aloqa

☐

Boshqa

Keyingi ikki yilda litsey va kollejlarni o'quv-laboratoriya qurollari, ta'limning texnik vositalari, mashina va mexanizmlar bilan jihozlash maqsadida Koreya Respublikasi va Osiyo taraqqiyot bankining kreditlari jalb qilindi. YAponiya hukumati bilan kredit ajratish masalasida kelishuvga erishildi.

Umuman, shu maqsadlar uchun jalb qilingan chet el investitsiyalarining miqdori 2000 yilda 150 million AQSH dollarini tashkil qildi¹.

O'zbekistonning Xalqaro valyuta fondi va jahon banki bilan hamkorligi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishdagi navbatdagi yo'nalishdir. Bu yo'nalishda XVF bilan tizimli qayta qurilishlarni mablag' bilan ta'minlash, tizimli va makroiqtisodiy siyosat sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab –quvvatlash Dasturlari maqullandi.

¹ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. "Xalq so'zi". 2001 yil 17 fevral, №37 (2599).

Jahon bank tashkilotlari - Xalqaro ta'mirlash va rivojlanish banki (XRRB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi (XRU), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Investitsiyalarni kafolatlash xalqaro agentligi (IKXA) bilan hamkorlik O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan XRRB yo'li bilan O'zbekistonga paxta etishtirish usullarini zamonaviylashtirib, uning jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashish va unumdorlikni oshirish uchun asos yaratish maqsadida 66 mln. dollar, muassasaviy islohatlarni davom ettirish uchun 120 mln. dollar mablag' ajratildi. Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) ham O'zbekistonda bir qator loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirishda Evropa ta'mirlash va taraqqiyot banki(ETTB) alohida rol o'ynaydi. Respublikada amalga oshirilayotgan umumiy qiymati 536 mln. dollarga teng 9 ta loyihada ETTBning ulushi 253,1 mln. dollarni tashkil qiladi.

ETTB O'zbekistonda amalga oshirish ko'zda tutilgan, umumiy summasi bir mlrd.dollardan ortiq bo'lgan yana 8 ta loyihani ko'rib chiqishi mo'ljallangan.

O'zbekistonning tashqi iqtisodiy va savdo faoliyatida Osiyo rivojlanishi Banki (ORB) hamda jahon savdo tashkiloti (JST) bilan hamkorlik istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

SHunday qilib. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishida dunyo mamlakatlari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik hal qiluvchi o'ringa ega bo'lib, bu milliy iqtisodiyotning

baynalmilallashuvini kuchaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotini yuqori bosqichga ko'tarishning asosiy tashqi omillari himsoblanadi.

3. Xalqaro savdoning mazmuni, to'zilishi va xususiyatlari.

Hozirgi jahon rivojining harakterli belgisi tashqi iqtisodiy aloqalarning, avvalo jahon savdosining tez o'sishi hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismi hisoblangan **jahon savdosi tashqi savdo oboroti, eksport va import** kabi ko'rsatkichlar bilan harakterlanadi.

Eksport-tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Ko'plab mamlakatlar, cheklangan resurs bazasiga va tor ichki bozorga ega bo'lib, o'zlarining ichki iste'moli uchun zarur bo'lgan barcha tovarlarni etarli samaradorlik bilan ishlab chiqarish holatida bo'lmaydi. Bunday mamlakatlar uchun eksport kerakli tovarlarni olishning asosiy yo'li hisoblanadi.

Jahon savdosida tovarlarning **eksport tarkibi** fan-texnika revolyutsiyasi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi ta'siri ostida o'zgaradi. Hozirgi davrda jahon savdosining eksport tarkibida qayta ishlovchi sanoat mahsulotlari etakchi o'ringa ega bo'lib, uning hissasiga jahon tovar ayriboshlashining 3/4 qismi to'g'ri keladi. Oziq-ovqat, xom-ashyo va yoqilg'i ulushi faqat 1/4 qismini tashkil qiladi.

Xizmatlar eksporti tovarlar eksportidan farq qiladi. Chet ellik iste'molchilarga xizmat ko'rsatish, chet el valyutalarini olish bilan bog'liq bo'lib, u milliy chegarada amalga oshiriladi /masalan, chet el

kompaniyasi vakillariga pochta, telegraf xizmati ko'rsatish, chet el fuqarolariga sayyohlik xizmati ko'rsatish va h.k/.

O'zbekistonning tashqi savdosida xorijiy davlatlarning salmog'i quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlanadi.

19-jadval

**Xorijiy va MDH davlatlarining Respublika tashqi
savdosidagi salmog'i, % hisobida¹**

¹ Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi statistika departamenti ma'lumotlari.

	Tashqi savdo			SHu jumladan:					
	aylanmasi			Eksport			Import		
	1998	1999	2000	1998	1999	2000	1998	1999	2000
MDH davlatlari	26,9	28,2	37,0	26,0	30,4	35,9	27,8	26,0	38,2
Xorijiy davlatlar	73,1	71,8	63,0	74,0	69,6	64,1	72,2	74,0	61,8

Kapital eksport qilish ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Kapital eksporti kredit berish yoki chet el korxonalari aktsiyalariga maqsadli qo'yilmalar kabi shakllarda amalga oshirilib, kapital chiqarilgan vaqtda eksport qiluvchi mamlakatdan mablag'lar oqimini taqozo qiladi va shu orqali tasarrufida bo'lgan resurslar hajmini qisqartiradi. Boshqa tomondan, kapital eksporti chet davlatlarning mazkur mamlakatdan bo'lgan qarzlarini ko'paytiradi. U jahon bozoriga tovarlarning keyingi eksporti uchun qulay sharoit yaratadi va chet el valyutasida foiz yoki dividend shaklida barqaror daromad olish omili hisoblanadi.

Import eksportdan farq qilib chet ellik mijozlardan tovarlar /xizmatlar/ sotib olib, ularni mamlakatga keltirishni bildiradi. **Tovarlar eksporti va importi summasi tashqi savdo aylanmasi yoki tovar aylanmasi beradi.** Qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun olgan taqdirda reeksport ro'y

beradi. Reeksport bilan reimport uzviy bog'liq. **Reimport iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarni sotib olishni bildiradi.**

O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi quyidagi ma'lumotlar bilan harakterlanadi.

20-jadval

**O'zbekistonda tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi,
(% hisobida)¹.**

Ko'rsatkichlar	1998	2000
Tashqi savdo	100,0	100,0
aylanmasi	51,8	52,5
Eksport	48,2	47,5
Import	100,0	100,0
Eksport –jami		
SHu jumladan:	91,2	86,3
Tovarlar	8,8	13,7
Xizmatlar	100,0	100,0
Import –jami:		
SHu jumladan:	95,0	91,5
Tovarlar	5,0	8,5
Xizmatlar		

Xalqaro savdo bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Iqtisodiy resurslarning harakatchanligi mamlakatlar o'rtasida, mamlakat ichidagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Masalan, ishchilar

¹ Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi statistika departamenti ma'lumotlari.

mamlakat ichida viloyatdan viloyatga, hududdan hududga erkin o'tishi mumkin. Mamlakatlar o'rtasidagi til va madaniy to'siqlar haqida gapirmaganda ham, immigratsion qonunlar ishchi kuchining mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasiga qattiq cheklashlar qo'yadi. Soliq qonunchiligidagi, davlat tomonidan tartibga solishning boshqa tadbirlaridagi farqlar va boshqa qator muassasaviy to'siqlar real kapitalning milliy chegara orqali migratsiyasini cheklaydi.

2. Har bir mamlakat har xil valyutadan foydalanadi. Bu mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni amalga oshirishda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

3. Xalqaro savdo siyosiy aralashuv va nazoratga mahkum bo'lib, bu ichki savdoga nisbatan qo'llaniladigan tadbirlardan harakteri va darajasi bo'yicha sezilarli farqlanadi.

Qiyosiy harajatlar nazariyasiga ko'ra erkin savdo tufayli, jahon xo'jaligi resurslarni samarali joylashtirishga va moddiy farovonlikning yuqori darajasiga erishishi mumkin. **Proteksionizm, ya'ni erkin savdo yo'lidagi to'siqlar** xalqaro ixtisoslashuvdan olinadigan nafni kamaytiradi yoki yo'qqa chiqaradi.

Erkin savdo yo'lida juda ko'p to'siqlar mavjud bo'ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- **boj to'lovlari** import tovarlarga aktsiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin.

Import kvotalari yordamida ma'lum bir vaqt oralig'ida import qilinishi mumkin bo'lgan tovarlarning maksimal hajmi o'rnatiladi.

Ta'rifsiz to'siqlar deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo'yish yoki oddiy ma'muriy taqiqlashlar tushuniladi;

Eksportni ixtiyoriy cheklashlar savdo to'siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o'zlarining ma'lum mamlakatga eksportini "ixtiyoriy" cheklaydi.

Mamlakatlar xalqaro savdo yordamida o'zlarining davlatlararo ixtisoslashuvini rivojlantirishi, o'zlarining resurslari unumdorligini oshirish va shu orqali ishlab chiqarishning umumiy hajmini ko'paytirishi mumkin. Alohida davlatlar, eng yuqori nisbiy samaradorlik bilan ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlarga ixtisoslashishi va ularning o'zlari samarali ishlab chiqarish holatida bo'lmagan tovarlarga ayirboshlash hisobiga yutish mumkin.

Bu erda mamlakatlar nima uchun savdo-sotiq qiladi? degan savol tug'iladi. Birinchidan, iqtisodiy resurslar dunyo mamlakatlari o'rtasida juda notekis taqsimlanadi: mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanishi keskin farqlanadi. Ikkinchidan, har xil tovarlarni samarali ishlab chiqarish har xil texnologiya yoki resurslar uyg'unlashuvini talab qiladi. Bu ikki holatning xalqaro savdoga ta'sirini oson tushuntirish mumkin. Masalan, YAponiya ko'p va yaxshi tayyorlangan ishchi kuchiga ega, malakali mehnat ortiqcha bo'lganligi sababli arzon turadi. SHu sababli, YAponiya tayyorlash uchun ko'p miqdorda malakali mehnat talab qilinadigan turli-tuman mehnat sig'imli tovarlarni samarali ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Avstraliya esa aksincha, juda keng maydonlariga ega bo'lgan holda etarli bo'lmagan miqdorda inson resurslari va kapitalga ega.

Qisqacha aytganda, himoya qilinadigan tarmoqlar savdo to'siqlarini kiritishdan oladigan foyda, butun iqtisodiyot uchun ancha katta yo'qotish hisoblanadi.

4. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari va valyuta tizimlari.

Pulning jahon xo'jaligida amal qilishi va turli xalqaro iqtisodiy aloqalarga (tashqi savdo, ishchi kuchi va kapital migratsiyasi, daromadlar, qarzlar va subsidiyalar oqimi, fan-texnika ayirboshlash, turizm va h.k.) xizmat qilishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar-xalqaro valyuta-kredit munosabatlari deb ataladi. U pulning **xalqaro to'lov munosabatida amal qilish** jarayonida vujudga keladi. **Valyuta**-bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, funt sterling va h.k.). Har bir milliy bozor o'zining milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi. Bunda milliy va xalqaro valyuta tizimini farqlash zarur. **Milliy valyuta tizimi**-valyuta munosabatlarining milliy qonunchilik bilan belgilanadigan, mazkur mamlakatda tashkil qilinish shaklini ifodalaydi. Xalqaro valyuta tizimi-xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Uning **tarkibiy elementlari** qo'yidagilar hisoblanadi: asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valyutalar, oltin, xalqaro valyuta birliklari-SDR, Evro), valyuta kurslarini belgilash va ushlab turish mexanizmi, xalqaro to'lovlarini balanslashtirish tartibi, valyutaning qaytaruvchanlik sharoiti, xalqaro valyuta bozori va oltin bozori tartibi, valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar tizimi.

Jahon valyuta tizimi o'zining rivojlanishida **uchta bosqichdan** o'tdi va ularning har biriga xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning o'z

tiplari mos keladi. **Birinchi bosqich** 1879-1934 yillar davrini o'z ichiga olib, bunda oltin standart sifatidagi pul tizimi ustunlikka ega bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi oxiri (1944 y.) dan 1971 yilgacha oltin –devizli (Breton-Vudsk tizimi deb nomlanuvchi) tizim ustunlikka ega bo'lgan. Bu ikki tizim qayd qilinadigan valyuta kurslariga asoslangan. Hozirgi davrda amal qiluvchi jahon valyuta tizimi 1971 yilda tashkil topgan bo'lib, bu tizim **boshqariladigan so'zib yuruvchi valyuta tizimi** nomini oldi. Chunki davlat ko'pincha o'z valyutalarining xalqaro qiymatini o'zgartirish uchun valyuta bozorining faoliyat qilishiga aralashadi.

Oltin standart tizim qayd qilingan valyuta kursining mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Banklar o'zlari chiqargan banknotlarni oltinga almashtirgan. Xalqaro to'lovlarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib, oltinni erkin chiqarish va kiritish xizmat qilgan. Mamlakat, uchta shartni bajarsa oltin standart qabul qilingan deb hisoblangan. a) O'z pul birligining ma'lum oltin mazmuni o'rnatadi; b) O'zining oltin zahirasi va pulning ichki taklif o'rtasidagi qattiq nisbatni ushlab turadi; v) Oltinning erkin eksport va importiga to'sqinlik qilmaydi. Oltin standart pul birligining oltin mazmuni nisbatiga asoslanadi. Oltin standart sharoitida, turli mamlakatlar pul birligining nisbati ularning rasmiy oltin mazmuni bo'yicha o'rnatiladi.

Oltin standart barbod bo'lgandan keyin, valyuta sohasini tartibga solishning o'zaro maqbul yo'lini topishga harakat qilindi. Yangi jahon valyuta tizimi asoslarini ishlab chiqish maqsadida, 1944 yil Bretton-Vudsa (AQSH) ittifoqchi davlatlarning xalqaro konferentsiyasi chaqirildi. Bu konferentsiyada o'zaro bog'liq valyuta kurslarini tartibga solish tizimini yaratish haqidagi kelishuvga erishildi va bu ko'pincha

Bretton - Vuds tizimi deb ataladi. Mazkur tizim oldingi oltin standartdan keskin farq qilmaydi. Uning asosida oltin - *valyuta standart* (AQSH dollari) yotadi va bu erda rezervlar sifatida *oltin va dollar chiqadi*.

Dollarning oltinga almashinishi rasman to'xtagandan keyin, valyutaning qayd qilingan kursi, **so'zib yuruvchi kursiga o'rin** bo'shatadi. Xalqaro valyuta tizimidagi bu o'zgarish 1976 yil Kingston (Yamayka) dagi kelishuvga binoan huquqiy jihatdan mustahkamlanadi. Qog'oz pul tizimiga o'tish bilan, qog'oz pullar oltinga almashtirilmaydi. Beqaror kurslar sharoitida valyuta kursi ham har qanday boshqa baho kabi talab va taklifning bozor kuchlari bilan belgilanadi.

Har qanday valyuta tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri valyuta kursi hisoblanadi. **Valyuta kursi bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasidagi ifodalanishini ko'rsatadi.**

Valyuta kurslariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib kursatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish harajatlari darajasi;
- milliy iste'molchilarning real harid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darajasi;
- valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi to'lov balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valyutaga jahon bozoridagi ishonch va h. k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, harid qilish layoqatining paritet (turli mamlakatlar pul birliklari qiymatining bir-biriga nisbati) nazariyasi yordamida beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, kurslar nisbatlarini aniqlash uchun, ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari "savati" narxlarini taqqoslash talab qilinadi. Masalan, agar

O'zbekistonda bunday "savat", aytaylik 25 ming so'm, AQSHda esa 100 dol. tursa, 25 mingni yuzga bo'lib, 1 dol. ning bahosini hosil qilamiz, bu 250 so'mga teng.

Agar O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi oqibatida, tovarlar bahosi ikki marta oshsa va barcha sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga ayirboshlash kursi ikki marta oshadi.

Asosiy tayanch tushunchalar:

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – qandaydir mamlakat ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun sotib olishi.

Reimport – iste'molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi –bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan bahosi.

To'lov balansi - mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt oralig'ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar - qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya'ni tovarlar ko'rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o'tishi bo'yicha kelishuvlar.

A D A B I Y O T L A R:

- 1.I.Karimov.”O’zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yulida.”T.“O’zbekiston” 1995 y .**
2. I.Karimov.”Ozod va obod Vatan,erkin va farovon xayot pirovard maksadimiz.”T.“O’zbekiston” 2000 y .
3. I.Karimov. “O’zbekiston XX! asrga intilmokda”
T.“O’zbekiston” 2000 y
- 4.A.O’lmasov,M.SHarifxo’jaev.”Iqtisodiyot nazariyasi”(darslik)
T.Mehnat.1995 y
- 5.Kodirov A va boshkalar “Iqtisodiyot nazariyasi” (o’quv qo’llanma)
1997 y. 276-287 betlar.
- 5.SHodmonov SH,Jo’raev T. “Iqtisodiyot nazariyasi” (Ma’ruzalar matni) T.2000 y 261-267 betlar
- 6.SHodmonov SH va boshkalar “Iqtisodiyot nazariyasi” (o’quv qo’llanma)T.2002 y. 381-386,393-401 betlar
- 7.Tojiboeva D. “Iqtisodiyot nazariyasi” (o’quv qo’llanma)
T.2003 y 376-399 betlar
8. Beknozov N. “Iqtisodiyot nazariyasi” (darslik)
T.2005 y 418-430 betlar

